



## DARI LANGUAGE DIALECTS

**Makhfuza Mamasodikova**

*“Translation Studies, Linguistics, and International Journalism” Graduate School*

*Dari – English, 1st-year student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com](mailto:Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

**Kh. Uktamova**

*Senior Lecturer, Graduate School of Iranian and Afghan Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies, PhD*

*Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** Dari language, dialect, vernacular, dialectology, Kabul dialect, Herat dialect, Hazaragi dialect, Mazar-i-Sharif dialect, Badakhshan dialect, phonetics, lexicon, grammar, literary language, linguistic features, ethnolinguistics.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article analyzes the main dialects of the Dari language formed within the territory of Afghanistan, focusing on their phonetic, lexical, and grammatical features. In particular, the specific characteristics of the Kabul, Herat, Hazaragi, Mazar-i-Sharif, and Badakhshan dialects, as well as the historical factors behind their formation, are examined. The relationship between these dialects and the literary language, the influence of regional and ethnic factors, and their linguistic interactions with neighboring languages are discussed on a scientific basis. The article also demonstrates that Dari dialects, rather than undermining linguistic unity, contribute to its enrichment and development.

## DARIY TILI SHEVALARI

**Maxfuza Mamasodiqova**

*“Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi*

*Dariy – ingliz 1–kurs talabasi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

[Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com](mailto:Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com)

*Toshkent, O‘zbekiston*

**X. Uktamova**

*TDSHU, Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** Dariy tili, sheva, lahja, dialektologiya, Kobul shevasi, Hirot shevasi, Hazoragi shevasi, Mozori Sharif shevasi, Badaxshon shevasi, fonetika, leksika, grammatika, adabiy til, lingvistik xususiyatlar, etnolingvistika.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dariy tilining Afgʻoniston hududida shakllangan asosiy shevalari, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Kobul, Hirot, Hazoragi, Mozori Sharif va Badaxshon shevalarining oʻziga xos jihatlari hamda ularning tarixiy shakllanish omillari yoritilgan. Shevalarning adabiy til bilan munosabati, hududiy va etnik omillar taʼsiri, shuningdek, qoʻshni tillar bilan lingvistik aloqalari ilmiy asosda bayon etiladi. Shuningdek, maqolada dariy shevalarining til birligiga putur yetkazmasdan, aksincha uning boyishi va rivojlanishiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

---

**ДИАЛЕКТЫ ДАРИЙСКОГО ЯЗЫКА**

**Махфуза Мамасодиқова**

*Высшая школа «Переводоведение, лингвистика и международная журналистика»*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Студентка 1 курса, направление «Дари – английский»*

[Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com](mailto:Mahfuzamamasodiqova19@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

**Х. Уктамова**

*Старший преподаватель*

*Высшей школы иранских и афганских исследований*

*Ташкентского государственного университета востоковедения, PhD*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** дарийский язык, диалект, говор, диалектология, кабульский диалект, гератский диалект, хазарагийский диалект, мазари-шарифский диалект, бадахшанский диалект, фонетика, лексика, грамматика, литературный язык, лингвистические особенности, этнолингвистика.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные диалекты дарийского языка, сформировавшиеся на территории Афганистана, с акцентом на их фонетические, лексические и грамматические особенности. В частности, рассматриваются специфические черты кабульского, гератского, хазарагийского, мазари-шарифского и бадахшанского диалектов, а также исторические факторы их формирования. Научно освещаются взаимоотношения диалектов с литературным языком, влияние региональных и этнических факторов, а также их лингвистические связи с соседними языками. Также в статье обосновывается, что диалекты дари не нарушают языковое единство, а, напротив, способствуют его обогащению и развитию.

---

**Kirish.** Sheva (fors. - harakat tarzi, tarz, usul) tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi – sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llaniladi . Sheva – bu boshqa sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang‘it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg‘ilon shevasi va boshqalar o‘zbek tilining eng kichik hududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Alohida shevalar birikib, lahjani tashkil etadi . Lahja (yoki dialekt) – bu bir tildagi so‘zlarning ma‘lum bir hudud yoki ijtimoiy guruhga xos bo‘lgan talaffuzi, lug‘at boyligi va grammatik xususiyatlari majmuidir.

O‘zbek tilshunosligida “lahja” tushunchasi “sheva”ga nisbatan kengroq ma‘noni anglatadi va bir nechta o‘zaro yaqin shevalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo‘llanilish doirasi keng bo‘lib, lahja va shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til me‘yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli shevalar ham asta-sekin o‘z xususiyatlarini yo‘qota boradi . Shevalar tilshunoslikning dialektologiya bo‘limida o‘rganiladi. Shevashunoslik – tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, tilning mahalliy lahja va shevalarini, ularning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini o‘rganadi. U shevalarning tarqalish chegaralari, tarixiy rivojlanishi, adabiy til bilan aloqasi va shakllanishini tadqiq qilib, tasviriy va tarixiy yo‘nalishlarga bo‘linadi. Shevashunoslikda lahja va shevalar, tilning xususiyatlari, tarixi va shakllanishi, lingvistik geografiyasi, shuningdek, adabiy til bilan munosabatlarini o‘rganadigan soha hisoblanadi. Lahja va shevalar – ma‘lum bir tilga mansub mahalliy lahja va shevalarning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Til xususiyatlarida esa shevalarning tovush tizimi – fonetika, so‘z shakllari – morfologiya, gap qurilishi – sintaksis va lug‘at boyligi – leksika tavsiflanadi. Tarix va shakllanishi – milliy tilning paydo bo‘lishi va rivojida shevalarning tutgan o‘rni, ularning kelib chiqishini, adabiy til bilan munosabati esa mahalliy shevalarning adabiy til va qardosh tillar bilan aloqadorligini tadbiq etadi .

Shevashunoslik tadqiqotlari adabiy til me‘yorlarini (orfografiya va orfoepiya) belgilashda, shuningdek, etnografiya va folklor bilan aloqada xalq tilining boyligini o‘rganishda muhim hisoblanadi. Afg‘onistonda dariy tilining bir qancha asosiy va o‘nlab kichik mahalliy shevalari mavjud. Garchi ularning talaffuzi va ayrim so‘zlari farq qilsa-da, so‘zlashuvchilar bir-birlarini qiynalmasdan tushuna oladilar. Dariy tilining asosiy shevalari mavjud. Bular kobul, hirot, mozori sharif, hazoragi, badaxshon. Shuningdek, Panjsheriy, Lag‘moniy, Sistoniy va Aymoqiy kabi hududiy

lahjalar ham mavjud. Ba'zi manbalarga ko'ra, Afg'onistondagi barcha tillar va lahjalar soni 200 tadan oshishi mumkin .

Kobul shevasi – Afg'onistonning poytaxti va uning atrofidagi hududlarda so'zlashiladigan, mamlakatning de-fakto standart dariy tili hisoblangan shevadir. Kobul shevasi – shunchaki sheva emas, bu klassikaning nafosati va xalq energiyasini o'zida saqlagan tarixning tirik nafasidir . U nafaqat Kobul aholisi, balki butun mamlakat bo'ylab madaniyat, ma'muriyat va turli millatlararo aloqa tili sifatida xizmat qiladi .

Kobul shevasining asosiy xususiyatlari talaffuz, grammatika, lug'at tarkibi hisoblanadi. Kobul shevasi klassik fors tilidagi "majhul" unlilarni saqlab qolishi bilan farqlanadi. Undoshlardan so'z oxiridagi h harfi ko'pincha tushirib qoldiriladi va undan oldingi unli cho'ziladi (masalan, fahmidan emas, fâmidan). Shuningdek, "w" tovushi ko'proq inglizcha "w" kabi talaffuz qilinadi. Keyingi xususiyati grammatika bo'lib, kundalik nutqda fe'l qo'shimchalari va bog'lovchilari qisqarib ketadi. Tushum kelishigi qo'shimchasi sifatida Kobul shevasidagi -râ o'rniga ko'proq -ra (unlidan keyin) yoki -a (undoshdan keyin) ishlatiladi. Eng muhim xususiyati lug'at tarkibidir. Kobul shevasida inglizcha va qisman hind, urdu tillaridan kirgan so'zlar uchraydi . Ba'zi fe'llarning ishlatilishi farq qiladi, masalan, "bilmoq" ma'nosida "dânestan" emas, ko'proq "fahmidan" fe'li qo'llaniladi.

Hirod shevasi – Afg'onistonning g'arbiy qismida, xususan Hirod viloyatida so'zlashiladigan, o'ziga xos boy tarixga ega bo'lgan lahjadir. B.Y. Eduardovichning fikriga ko'ra, afg'on shevalari – Sharq klassik she'riyatini tushunish kalitidir . Hirod shevasi dariy shevalaridan Eron fors tiliga yaqinligi, fonetika, arxaik jihatlari bilan yaqqol ajralib turadi. Hirod Eron bilan chegaradosh bo'lgani sababli fors tiliga yaqin, ayniqsa, Mashhad lahjasiga boshqa dariy tili shevalariga qaraganda ancha yaqinroq. Masalan, so'z oxiridagi "a" tovushi ko'pincha "e" deb aytiladi (masalan, khana emas, khane). Kobul shevasida "w" harfi ko'proq "w" kabi aytilsa, Hirotda u aniq "w" lab-tish tovushi sifatida talaffuz qilinadi. Hirodliklar ba'zan "i" va "e" tovushlarini o'zaro almashtirib qo'llaydilar (masalan, el o'rniga il) . Hirod shevasi klassik fors tilidagi ko'plab qadimiy so'zlarni saqlab qolgan. Masalan, Âftâb-e zard – quyosh botishiga yaqin vaqt. Šâmidan – ichmoq (dariy adabiy tilida nušidan).

Hirod asrlar davomida Xurosonning madaniy markazi bo'lgani sababli, bu sheva Alisher Navoiy davridagi klassik til an'analari o'zida mujassam etgan. Tarixiy manbalarda, jumladan Tole Hiraviyning "Badoyi ul-lug'at" asarida Hirod shevasiga xos xususiyatlar bayon etilgan. "Badoye ul-lug'at" asari XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Hirod o'zbeklari shevasi va Navoiy davri tilini o'rganishda eng muhim manbalardan biri sanaladi. Asarida Hirod shevasiga oid leksik xususiyatlar, talaffuzlar, grammatik shakllar va mahalliy shevalar haqida asosiy dalillar keltirilgan. Leksik xususiyatlari haqida gap ketsa, lug'atda Navoiy asarlarida qo'llangan, lekin o'sha davrning boshqa turkiy lahjalaridan farq qiluvchi Hirod va Xuroson hududiga xos mingga yaqin so'z va iboralar sharhlangan .

Muallif soʻzlarning Hirot shevasidagi talaffuz meʼyorlarini (ayniqsa, unli harflarning aytilishini) aniq misollar bilan yoritib beradi. Bu oʻsha davrdagi “jonli” til va adabiy til oʻrtasidagi tafovutlarni koʻrsatadi. Grammatik shakllari esa asarda feʼllarning “masdar” (harakat nomi) shaklida berilishi va sifat, son, olmoshlarning Hirot oʻzbeklari nutqiga xos qoʻllanish usullari tahlil qilingan. Mahalliy sheva va adabiy til qiyosida Toʻle Hiraviy Navoiy qoʻllagan soʻzlarni izohlar ekan, ularning Hirot muhitidagi maʼno nozikliklarini ochib beradi, bu esa asarning etnolingvistik ahamiyatini oshiradi

Kobul va Hirot shevalari oʻzaro bir-biridan talaffuz, leksika va grammatik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Kobul shevasi Afgʻonistonning rasmiy va dariy adabiy tili asosi hisoblanadi. U klassik fors tili fonetikasini koʻproq saqlab qolgan va tojik tiliga yaqinroqdir. Hirot shevasi esa Eronning fors adabiy tili (Tehron shevasi)ga fonetik jihatdan juda yaqin. Hirotliklar ayrim unilarni eronliklarga xos tarzda talaffuz qilishadi. Kobul shevasida ingliz tili va pushtu tilidan kirgan oʻzlashmalar koʻproq uchraydi. Hirot gʻarbda, Eron bilan chegaradosh boʻlgani uchun uning leksikasida fransuz tili (Eron orqali) va sof forsiy arxaizmlar koʻproq saqlanib qolgan. Kobul shevasi mamlakatning markaziy va sharqiy qismlarida “koine” (umumaloqa tili) vazifasini oʻtaydi. Dariy tili – Hindiston, Eron va Turon oʻrtasidagi koʻprikdir, uning shevalari esa ushbu koʻprik qurilgan toshlardir .

Hirot shevasi esa tarixan madaniy elita va shoirlar tili boʻlib kelgan, uning taʼsiri asosan Afgʻonistonning gʻarbiy viloyatlarida (Faroh, Bodgʻis) kuchli. Umuman olganda, bu ikki sheva egalari bir-birini bemalol tushunishadi, biroq ularning ohangi (aktsenti) va ishlatadigan kundalik soʻzlari orqali qayerdan ekanliklarini darrov ajratish mumkin. Tilshunoslikda maʼlum bir geografik yoki ijtimoiy guruh tomonidan soʻzlarni talaffuz qilishning turli usullari va nutq ritmi boʻlmagan deyiladi . Grammatika yoki kalit soʻzlardagi oʻzgarishlar umumiy tilni boshqa ohang bilan ifodalaydi. Lahjalar odatda yashash joyi, masalan, Isfahoniy shevasi yoki ijtimoiy tabaqa – quyi shahar shevasi bilan bogʻlanadi. Shevashunoslikda fonologik farqlar, asosan, sheva harflarning ritmi, balandligi va talaffuziga eʼtibor beradi. Shevalardan farqli oʻlaroq, bir tilning turli lahjalariga ega boʻlgan odamlar bir-birlarini hech qanday qiyinchiliksiz tushuna oladilar.

Hazoragi shevasi – asosan Afgʻonistonning markaziy qismidagi Hazorajot hududida istiqomat qiluvchi hazora xalqi soʻzlashadigan, oʻzining tarixiy va lingvistik qatlamlari bilan ajralib turadigan oʻziga xos tildir. Ushbu sheva genetik jihatdan hind-yevropa tillari oilasining eroniy tillar guruhiga, xususan, dariy tiliga yaqin boʻlsa-da, uzoq asrlik rivojlanish jarayonida oʻziga xos mustaqil xususiyatlarni shakllantirgan. Hazoriylarning qabilaviy va til tuzilishiga turli etnik guruhlar, masalan, arablar taʼsir koʻrsatdi. Diniy taʼsiri esa Eron hazoralari madaniyatiga taʼsir qildi. Baʼzi sabablarga koʻra hazora atamasi undan olingan, yaʼni forscha hazâr (ming) soʻzi dastlab moʻgʻulcha ming (ming) atamasidan tarjima qilingan. Moʻgʻul qoʻshinlarning harbiy qismiga ishora qilingan. Hazora

xalqining mo‘g‘ullar bilan aloqasi bor, deyiladi, chunki imperiyani, genetik va jismoniy o‘xshashliklari, shuningdek, kuchli leksik aloqalari bo‘lgan .

Hazora shevasining eng muhim va ajralib turuvchi jihati uning tarkibida qadimgi mo‘g‘ulcha va turkiy so‘zlarning juda salmoqli ulushga ega ekanligidir. Bu xususiyat hazora xalqining etnik shakllanish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, nutqda “ata” (ota), “aba” (ona), “berar” (birodar) kabi turkiy-mo‘g‘ul ildizli so‘zlarning faol qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslar hazora shevasini fors tilining eng qadimiy, hatto IV-V asrlarga borib taqaladigan arxaik shakllarini saqlab qolgan “jonli muzey” deb hisoblashadi, chunki u zamonaviy fors tilidan chiqib ketgan ko‘plab grammatik tuzilmalarni hanuzgacha o‘zida asrab kelmoqda. Fonetik jihatdan u o‘zining jarangdorligi, “q” va “g” tovushlarining o‘ziga xos qattiq talaffuzi hamda Markaziy Osiyo turkiy tillariga xos bo‘lgan ohangi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda bu sheva nafaqat Afg‘onistonda, balki Eron va Pokistondagi yirik hazora jamoalari orasida ham jonli muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda va o‘zining boy og‘zaki adabiyoti, dostonlari hamda folklori orqali mintaqa madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Mozori Sharif shevasi – Afg‘onistonning shimoliy hududlarida, xususan Balx viloyatida shakllangan, o‘zida turli madaniyatlar va tillar chorrahasini mujassam etgan o‘ziga xos lingvistik hodisadir. Ushbu sheva asosan ikki yirik yo‘nalishni – Mozori Sharif dariy lahjasini va Mozor Sharif o‘zbek shevasini o‘z ichiga olib, ularning bir-biriga o‘zaro ta’siri natijasida boy va rang-barang muloqot tizimi vujudga kelgan. Mozori Sharifning dariy lahjasi o‘zining fonetik tuzilishi va ohangdorligi bilan Kobul lahjasidan farq qilib, Markaziy Osiyo tojik tili, ayniqsa, Janubiy O‘zbekiston va Tojikiston hududlaridagi so‘zlashuv uslubiga juda yaqin turadi. Shu bilan birga, bu hududdagi o‘zbek shevasi qadimgi qarluq guruhiga mansub bo‘lib, u asrlar davomida fors tili bilan yonma-yon yashashi natijasida o‘ziga xos leksik qatlamni shakllantirgan. Shahar aholisining ko‘p millatlilik, ya’ni tojik, o‘zbek, hazora va turkman xalqlarining aralash yashashi nutqda turli tillarga oid so‘zlarning tabiiy ravishda birikib ketishiga sabab bo‘lgan. Mozori Sharif shevasining yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, unda klassik fors adabiyoti va qadimgi turkiy tili uchun xos bo‘lgan, biroq zamonaviy adabiy tillardan chiqib ketgan ko‘plab arxaik iboralar hamon jonli tilda saqlanib qolgan. Bu esa Mozori Sharif shevasini mintaqaning tarixiy-madaniy ildizlarini o‘rganishda muhim lingvistik manba sifatida xizmat qilishiga imkon beradi.

Badaxshon shevasi – Afg‘onistonning G‘azni viloyati, xususan, Jag‘uri tumani va unga yondosh hududlarda istiqomat qiluvchi hazora xalqining o‘ziga xos va boy tarixga ega bo‘lgan hududiy dialektidir. Ushbu sheva lingvistik jihatdan dariy tilining bir tarmog‘i bo‘lgan hazora shevalar tizimiga kiradi, biroq u o‘zining qadimiy mo‘g‘ulcha va turkiy qatlamlari bilan boshqa lahjalardan ajralib turadi. Badaxshoniy shevasining shakllanishi bevosita Hazorajotning janubiy hududlaridagi qabilaviy tarkib va geografik yopiqlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu omil tilda arxaik

shakllarning saqlanib qolishiga xizmat qilgan. Ushbu lahdada nutq soʻzlashuvchi aholi kundalik hayotda, ayniqsa chorvachilik, oilaviy munosabatlar va tabiat hodisalarini ifodalashda klassik fors tilida uchramaydigan, ammo turkiy va moʻgʻul tillari bilan umumiy ildizga ega boʻlgan “ata”, “aba”, “elchi” kabi oʻnlab soʻzlarni faol qoʻllaydi. Fonetik nuqtayi nazardan Badaxshoniy shevasi oʻzining qatʼiy va jarangdor talaffuzi bilan ajralib turadi; bunda “q” va “g” tovushlarining talaffuzi forsiy yumshoqlikdan koʻra, koʻproq qadimgi chigʻatoy tili fonetikasiga yaqinlik namoyon etadi. Morfologik jihatdan esa feʼl shakllari va zamon qoʻshimchalari oʻziga xos qisqartmalar va mahalliy iboralar bilan boyitilgan boʻlib, bu nutqqa oʻzgacha bir ritm va ohangdorlik baxsh etadi. Bugungi kunda Badaxshoniy shevasi nafaqat muloqot vositasi, balki hazora xalqining etnik identifikatsiyasi va oʻziga xos madaniy merosini saqlab qolgan “jonli muzey” sifatida tilshunos olimlar tomonidan yuqori baholanadi.

Dariy tili – Afgʻonistonning asosiy rasmiy tillaridan biri sifatida nafaqat aloqa vositasi, balki tarixiy va madaniy merosning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning shevalari mamlakatning turli hududlarida shakllangan boʻlsa-da, ular yagona til tizimiga mansub boʻlib, oʻzaro uzviy bogʻliqlikni saqlab qolgan. Dariy shevalaridagi farqlar tilning zaifligini emas, aksincha uning tarixiy chuqurligi va tabiiy rivojlanish jarayonini koʻrsatadi. Har bir hududiy sheva oʻzida oʻsha mintaqaning ijtimoiy hayoti, etnik tarkibi va tarixiy aloqalarini aks ettiradi. Masalan, Kobul shevasi davlat boshqaruvi va taʼlim sohasida asosiy meʼyor boʻlib xizmat qilsa, Hirot shevasi adabiy va estetik jihatdan Eron fors tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Markaziy hududlardagi hazoragi esa qadimiy til unsurlarini saqlab qolganligi bilan lingvistik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shevalar oʻrtasidagi farqlar asosan fonetik va leksik darajada boʻlib, grammatik tizim deyarli umumiylikicha qolgan. Bu esa dariy tilining ichki birligini mustahkamlaydi. Yaʼni hududiy tafovutlar mavjud boʻlsa-da, ular oʻzaro tushunishni qiyinlashtirmaydi. Tilning meʼyorlashgan shakli esa umumxalq aloqa vositasi sifatida barqarorlikni taʼminlaydi. Dariy shevalari qoʻshni tillar bilan uzoq tarixiy aloqalar natijasida boyigan. Bu jarayon tilning lugʻat boyligini kengaytirgan va uni madaniy jihatdan rang-barang qilgan. Shunday qilib, shevalar tilning parchalanishiga emas, balki uning boyishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, zamonaviy ommaviy axborot vositalari, taʼlim tizimi va migratsiya jarayonlari natijasida adabiy dariy tili kengroq tarqalmoqda. Bu esa shevalar oʻrtasidagi keskin tafovutlarni asta-sekin kamaytirib, umumiy meʼyorning mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Dariy tilining shevalari - bu bir butun til tizimining turli koʻrinishlari boʻlib, ular tilning tarixiy taraqqiyoti, madaniy xilma-xilligi va hududiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shevalar oʻrtasidagi farqlar tabiiy lingvistik jarayon mahsuli boʻlib, ular til birligiga putur yetkazmaydi. Aksincha, Dariy tilining ichki boyligi va moslashuvchanligini namoyon etadi.

Shu bois, dariy shevalarini o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Til birligi va hududiy rang-baranglikning uyg'unligi dariy tilini mintaqadagi barqaror va kuchli til tizimlaridan biriga aylantirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduvaliyev A. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2005.
2. Morgenshtierne G. Report on a Linguistic Mission to Afghanistan. – Norway, 1926.
3. Navoiy Alisher. Badoyi ul – lug'at. – Toshkent, 1961.
4. Reshetov V.V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1978.
5. Rustamov. A. O'zbek tili tarixi va rivojlanishi. – Toshkent, 2023.
6. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1978.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
8. Yarring G. Uzbek Texts from Afghan Turkestan. – Switzerland, 1938.
9. Дорофеева Л.Н. Язык фарси-кабули. – Москва, 1960.
10. Кушев В.В. Язык дари Афганистана. – Москва, 1985.
11. Оранский И.М. Введение в иранскую филологию. – Москва, 1960.
12. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Москва, 1975.
13. Эдуардович Б.Й. Афганское наречие - ключ к пониманию восточной классической поэзии. – СПб, 1891.